

қарши маъноларни берадиган сўзларни, ибораларни баёнда ёнма-ён қўллаш орқали образлиликни келтириб чиқаришга асослангандир” [5:21]. Шоира шеърларида ҳам сўзнинг шакл ва маъно муносабатига қўра турларидан – антонимлар (зид маъноли сўзлар)дан ижодкорона фойдаланган. Масалан:

Аввал ичингда қил ибодатингни,

Аввал ичингда ёй шахд-қанотингни...

Ғам ема. Бир камдир, тўлдириб бўлмас,

Аввал ўз ичингда кир, кириб бўлмас.

Ички бургут кўклаб, ўзни урами,

Ташқарида Сени ўлдириб бўлмас [1:7].

Шоиранинг “Сайланмаси”дан олинган бу шеърида **Ғам ема. Бир камдир, тўлдириб бўлмас**, мисрасида зид маъноли сўзлар ифодаланган. Бу байтда ўзининг кимлигини англаб етмаган, ёруғ оламга нима учун келганини фаҳм этолмаган, шоира айтганидек, ўз ичидаги ибодатхонада ибодат қилолмаган кимсалар ҳар нечук нурдан кўзи камашган, бироқ заррача бўлсин иймон нури билан борлиги ёришмаган зотлар ҳақида ёзилганлигини кўриш мумкин.

Адабиётлар

1. Худойбердиева Х. “Танланган асарлар”. -Т.: “Шарқ”, 2020, 560-б.
2. Сафо Матжон, Шарофжон Сариев. “Ўзбек адабиёти”. –Тошкент: 2005. 200-б.
3. Тошхўжаева Ш. “Зид маънолик ва ифода имкониятлари”. // “Ўзбек тили ва адабиёт”, 2014 № 3.
4. Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. –Самарқанд: 1994. 72-б.
5. Тошхўжаева Шоирахон “Фонетик воситаларнинг бадий-эстетик вазифалари”. // “Ўзбек тили ва адабиёт”. 2014 № 5.
6. Арасту “Поэтика”. –Тошкент: 2004.
7. Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Т.: “Талкин”, 2005, 272-б.
8. Эрназарова М. “Субстанциал-прагматик терминларнинг қисқача изохли луҳати”. - Т.: “Мухаррир нашриёти”. 2017, 40-б.
9. Хакимов М. Ўзбек прагматиквистикаси асослари. Монография. - Тошкент: Академнашр, 2013.
10. Мамажонов З. “Шеърӣ санъатларни таснифлаш масаласига доир”// “Ўзбек тили ва адабиёт”, 2005 № 6.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада нозиктаб шоира, гўзал дунёқараш ва ўткир англаш қобилиятига эга бўлган ижодкор Ҳалима Худойбердиева шеърлятида қўлланган лафзий санъатларни лексик таҳлили ва бу бирликларнинг бадий-эстетик вазифаларига кичик тажрибалар ёрдамида илмий асосдаги хулосалар келтирилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлен лексический анализ риторических искусств, используемых в поэзии Халимы Худойбердиевой, прекрасного поэта, прекрасного мировоззрения и остроумного художника, научные выводы, основанные на небольших экспериментах над художественно-эстетическими функциями этих единиц.

SUMMARY

In this article, a lexical analysis of the verbal arts used in the poetry of the poet Halima Khudoiberdiyeva, a poet is given with a beautiful outlook and sharp comprehension, scientifically based conclusions.

OMON MUXTOR IJODIDA LIRIK VA EPIK TASVIR UYG‘UNLIGI

(“Ko‘zgu oldidagi odam” romani misolida)

A.J.Xo‘jamqulov– *tayanch doktorant*
Samarqand davlat universiteti

Tayanch so‘zlar: lirik tur, epik tur, liro-epik tasvir, roman, sujet, kompozitsiya, epigraf, zamonaviy adabiyot.

Ключевые слова: лирический тип, эпический тип, лиро-эпический образ, роман, сюжет, композиция, эпиграф, современная литература.

Key words: lyrical type, epic type, lyro-epic image, novel, plot, composition, epigraph, modern literature.

Ma‘lumki, badiiy adabiyotni tur va janrlarga ajratish borasida adabiyotshunos olimlarning turlicha qarashlari, tasniflari mavjud. Ular orasida ifoda tarzi yoki shakli va hajmiy jihatlar nuqtayi nazaridan ham tasniflarni uchratish mumkin. Ushbu holatlarning umumlashmasi o‘laroq Aristotel sharhi bo‘yicha (eramizdan avvalgi 384-322 yillar) badiiy adabiyotni uch turga – epik, lirik va dramatik turlarga ajratish odat tusiga kirgan [1:352]. “Shu bilan birga, o‘tgan asr adabiyotshunosligida adabiy asarlarni turlarga ajratish zarurati yo‘q, degan qarash ham ilgari surilgan. Biroq bu fikrga mutlaqo qo‘shilib bo‘lmaydi. Nega deganda, bunday qarashning yuzaga kelishi adabiyot ilmidagi yangicha – adabiy asarni ham adabiy-madaniy, ham ijtimoiy-tarixiy zamandan uzib o‘rganuvchi, adabiyotshunoslikning predmeti ko‘lamini g‘oyat tor oluvchi yo‘nalishlar bilan bog‘liq. Zero, bitta asar obyekt qilib olinar ekan, turlarga ajratish chindan-da keraksiz. Biroq obyekt qilib ming yilliklar qo‘ridan kelayotgan, bashariyat hayotidagi ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ruhoni, ma‘rifiy jarayonlar bilan bevosita bog‘liq va ming-minglab turli-tuman asarlar shaklida yashayotgan hodisa olinsa, turlarga ajratish zarurat. Haqiqiy adabiyotshunoslikning

obyekti esa ayni shu hodisadir” [4:352].

Shuningdek, adabiy jarayonda shunday asarlar ham maydonga kelganki, ularda adabiy turlarning o‘zaro uyg‘unlashuvini ham ko‘rish mumkin. Xususan, o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘rni va uslubi bilan ko‘pchilikning e‘tirofiga erishgan Omon Muxtor romanlarida ham shakli, ham mazmunij jihatdan adabiy turlarning badiiy integratsiyasi namoyon bo‘lgan.

Xususan, o‘tgan asrning 90-yillarida yozilgan “Ko‘zgu oldidagi odam” romani o‘zi yaratilgan davrga qadar vujudga kelgan an‘anaviy realizm yo‘lidagi romanlardan kompozitsiyasi, tili va ifoda tarzi bilan ajralib turadi. Asarda lirik va epik tasvir uyg‘unligini uning epigrafidanoq sezish mumkin:

“Ming sir bor tuproqda...” (Oybek), “Mendan nima istaysan, ko‘zgu, Senga nima kerak!” (Eski bir qo‘shiqdan) [2:164].

Mazkur asarda 2 ta epigraf keltirilgan bo‘lib, ularning birinchisi Oybekning quyidagi to‘rtligidan olingan:

Tarix va falsafa chuqur, murakkab,
Hayot mash‘alidir haqiqat, chin gap,

Ijodning bulog'i tinimsiz oqsin:

Ming sir bor tuproqda — olsangiz bir kaft. [3:64]

O. Muxtor ushbu to'rtlik orqali "mo'jazgina" "Ko'zgu oldidagi odam" (136 betlik) romanida ifoda etmoqchi, aytmoqchi bo'lgan gaplariga ishora qiladi. Muallif tilidan hikoya qilinuvchi asar bosh qahramoni Valining hayoti, turmush kechinmalari o'quvchi nazarida "bir kaft"dek, tor qamrovli, uch-to'rt kishi qurshovida o'tgandek go'yo. Lekin qahramonning mana shu "bir kaftlik" hayotida "ming sir bor"ligi, asarning boshdan-oyoq jumboq asosiga qurilganligi o'quvchini asarning oxirigacha ushbu jumboq yechimini qahramon bilan birga izlashga "majbur" qiladi. Asar Valining o'zi o'qigan maktab binosi tomining chaqmoq urishiga o'xshash alanga ta'sirida teshilishi va u yerda hayotligida bir-biri bilan kelishmay, doimo janjallashib yuradigan uchuvchi — Badalbek hamda Siroj muallimlarning bir-birini mahkam quchib olgan jasadlari topilishi bilan bog'liq voqealar asosida boshlanadi. Maktab qiroatxonasi tomining teshilishi voqeasi — yarim tunda ro'y bergan vaqtda uchuvchi Badalbekning bu ahvolga tushishi ko'pchilikni ajablantirmaydi. Chunki u ichib olib, uchaverradi. Biroq Siroj muallimning bu vaqtda maktabga nima uchun kelganligi kitobxon bilan bir qatorda hikoya muallifi, bir vaqtlar shu maktabda tahsil olgan, muallimning qadrdon shogirdlaridan bo'lgan Valini ham ajablantiradi. Asarning qolgan qismi shu jumboqni yechish va bu jarayonda yuzaga kelgan boshqa ko'plab yangi jumboqlar, savollarga javob izlagan Valining keyingi hayoti haqida boradi. Birgina mana voqea asar qahramonining butun hayotini o'zgartirib yuboradi. Ketma-ket jumboqlarga javob izlagan Vali, o'z navbatida, o'z hayotining mazmunini, o'zligini anglashga harakat qiladi va bu yo'lda ko'plab ruhiy iztiroblarni boshdan kechiradi. Shu o'rinda, asarning ikkinchi epigrafi nima uchun tanlanganini tushunish mumkin: "Mendan nima istaysan, ko'zgu, Senga nima kerak!"

Omon Muxtor asar qahramoni Valining ichki tug'yonlari, ruhiyatidagi qarama-qarshiliklar, uning iztiroblarini tasvirlashda shu hissiyotlarga mos she'riy jumalardan foydalanadi. Ushbu jumalalar turli ijodkorlar ijodidan namuna sifatida keltirilib, yozuvchi tomonidan asar voqealariga monand ohangda yangraydi. Chunonchi, Alisher Navoiydan:

1. "Ayta olmonkim firoqingdin ne yanglig' zormen"; [2:215]

2. Kamol et kasbkim olam uyidin,
Sanga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o'tmak biayni,
Erur hammomdin nopok chiqmoq. [2:258]

M. Aligerdan:
Men deyman, o'zimcha ko'tarib isyon, —
Garchi fanga bordir ko'nglimda hurmat, —
Odamlar, odamlar, nechun sizga osmon,
Sizga kammi, axir, zaminda g'urbat?!
Siz ko'kka boqasiz qandaydir hayron,
Ko'kda sizni go'yo kutayapti taxt.
Odamlar, odamlar, nechun sizga osmon,
Sizga, axir, kammi zamindagi baxt?! [2:232]
Cho'lpon Ergashdan:
Derazamiz
Shundoqqina ayvon ostida,

Adabiyotlar

1. Aristotel. Axloqi kabir. -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. 352-b.
2. Omon Muxtor. To'rt tomon qibla: uch romandan iborat Sharq daftari: (trilogiya). — T.: "Sharq", 2000.
3. Oybek. Sozim. (She'rlar to'rlami). — T.: G.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. 64-b.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. — T.: Akademnashr, 2018. 352-b.

Ushbu maqolada o'zbek modern adabiyotining yirik nomoyandalardan biri bo'lgan Omon Muxtorning "Ko'zgu oldidagi odam" romani misolida lirik va epik tasvir uyg'unligi masalasi xususida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается вопрос о сочетании лирического и эпического образа в романе "Человек перед зеркалом" одного из крупнейших представителей узбекской современной литературы Омона Мухтара.

SUMMARY

This article discusses the combination of lyrical and epic imagery in Omon Mukhtor's novel "The Man in the Mirror" one of the greatest figures in modern Uzbek literature.

Ko'cha qoshida.

Ba'zan katta kichikni men,
Ba'zan kichik kichikni u ko'tarib,
Derazadan qaraymiz,
Kaptarlarni ko'rsatib,
Javraymiz:

— Ana, qara! Beh-beh!

— Qara, qara! Mah-mah...

A. Blokdan:

Aylantirib chinga armonni,
Boqiy umr berib har damga,
ODAMIYLIK berib ODAMga —
Men yashashni istayman yonib.

Mayli, uzsin umrimni uyqu,

Mayli, meni g'arq etsin ummon —

ERTANGI KUN MAMNUN bo'lsa-yu,

Aytsa basdir baxtli bir inson:

U yashagan, nahotki, axir,

Faqat bo'lib hasratga bandi?!

Yo'q, u ERKka talpingan taqdir,

EZGULIKning sodiq farzandi! [2:266]

kabi she'rlarning keltirilishi asarda tasvirlanayotgan voqelikni o'quvchiga ixcham, qisqa shaklda bayon etgan vosita sifatida xizmat qilgan bo'lsa, ayni damda, keng ko'lamli ma'no-mazmunni qulay tarzda taqdim etish imkonini ham bergan.

Bundan tashqari, romanda muallif qalamiga mansub she'rlarni ham uchratish mumkinki, ushbu she'rlar kitobxon uchun voqealar rivoji zanjirida muayyan bir xalqa vazifasini bajaradi va bir lavhadan boshqa bir lavhaga o'tilganda badiiy ko'priq vazifasini bajarib, voqelikning hazm qilinishini osonlashtiradi.

Jumladan,

"Jonlanib qay bir kuni sen

Bu ko'ngil sahosida —

G'arq etib ketding meni sen

Ko'zlaring daryosida..."

"Seni ko'rar kun bormi,
sanam?!

U — o'ngmida yo tush?

Nahot, mangu ayrildim sendan —

Xayolimda uchib yurgan qush?!" [2:218]

"Siz ham, onajon, ketdingizmi?!

Qaytib hech qachon kelmaysizmi?!

Kim eshitadi dodimizni,

Eshitarmikan?! Bilmaysizmi?!" [2:228]

"Men sizni sevdim-u

ko'ksimda dastlab —

osmonda bor qushlar

Uchdilar pastlab..."

kabilar. [2:278]

Ushbu kabi she'riy o'rinlarni romanda yana ko'plab uchratish mumkin. Aytish joizki, asardagi epik va lirik tasvir uyg'unligining namoyon bo'lishi uning xuddi xalq dostonlaridek oson, yengil va zavq bilan o'qilishiga imkon bergan. Muallif Omon Muxtorning epik va lirik tasvir mushtarakligini to'g'ri topa olganligi, asar muvaffaqiyatini ta'minlagan, desak to'g'ri bo'ladi.